

**TALABALRDA IRODA YETISHMASLIGI VA UNI YUZAGA KELTIRUVCHI
PSIXOLOGIK OMILLAR**

Bozorova Ro'zigul

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich 222-guruh talabasi.

+998 99 704 96 15

M.U. Saydaliyeva

Ilmiy rahbar:

+998 99 542 91 43.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11176541>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda iroda va motivatsiyaning yetishmasligi, ularning sabablari va oqibatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotdan asosiy maqsad salbiy holatlarning oldini olish hamda yoshlarga amaliy ko'mak ko'rsatishdan iborat, shuningdek, mavjud iroda va motivatsiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Iroda, motivatsiya, temperament, xarakter, qobiliyat, tafakkur, alturizm, aggressivlik, stress, depressiya, abuliya, giperabuliya, gipoabuliya, rigidlik.

LACK OF WILL IN STUDENTS AND PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING IT

Abstract. In this article, research is conducted on the lack of will and motivation in young people, their causes and consequences. The main goal of the research is to prevent negative situations and provide practical help, as well as to develop existing will and motivation.

Key words: Will, motivation, temperament, character, ability, thinking altruism, aggressiveness, stress, depression, abulia, hyperabulia, hypobulua, reticence.

**БЕЗВОЛЯ У СТУДЕНТОВ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ
ЕЕ**


Аннотация. В данной статье проводятся исследования отсутствия воли и мотивации у молодежи, их причины и последствия. Основная цель исследования – предупреждение негативных ситуаций и оказание практической помощи молодым людям. Это также подразумевает развитие существующей воли и мотивации.

Ключевые слова: Воля, мотивация, темперамент, характер, способности, мышление, альтруизм, агрессивность, стресс, депрессия, абулия, гиперабулия, гипоабулия, замкнутость.


Inson faoliyati uchun iroda va motivatsiya eng asosiy omil hisoblanadi, biri albatta ikkinchisini taqozo etadi. Zero, bu ikkisi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda yoshlarda iroda va motivatsiyaning qay darajada ekanligini aniqlash juda ham muhim. Negaki, aynan yoshlar yurtning ertangi kuni hisoblanadi. Yurtning koriga yarash uchun, avvalo, yoshlikdan maqsad va yo'nalishni aniq belgilab olmoq lozim. Yoshlarning ma'naviyati, salohiyati va o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori darajada bo'lsa, yurtning kelajagi ham shu darajada yuksalib boradi. Buning uchun esa, yoshlarda iroda va motivatsion sohasi yuqori darajada bo'lmog'i lozim.

Aynan ushbu jihatlar mavjud bo'lgan yoshlargina tafakkur qiladi, o'z mustaqil fikriga ega, qat'iyatli bo'ladi.


Ba'zilarda iroda yetishmaslik kasalliklari, jumladan: abuliya, gipoabuliya, giperabuliya ham uchrashi mumkin, ammo bu kasalliklar sog'lom odamda uchramaydi. Sog'lom odamlarda uchraydigan irodaning yetishmasligi o'zlarining aynan ikkilanishlari yoki biror-bir faoliyatni amalga oshirishda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi tufayli kelib chiqishi mumkin. Yoki bo'lmasa, bolalikda orttirilgan ruhiy jarohatlar tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, iroda va motivatsion holatlar hayot davomida orttirilish bilan bir qatorda avloddan-avlodga o'tishi yoki ularning temperamenti bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ayni globallashuv zamonida yoshlarda iroda va motivatsiyaning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot olib bordim. Siinaluvchilarim esa, Termiz Davlat Universitetining Iqtisod-Turizm fakulteti 4-kurs hamda O'zbek-Filologiya fakulteti 1-kurs talabalari bo'lishdi. Tadqiqotda har bir fakultetdan teng miqdorda sinaluvchilar ishtirok etishdi. Buni quyidagi diogramma orqali ko'rishingiz mumkin.



Jins bo'yicha ham teng miqdorda sinaluvchilar qatnashdi, ya'ni, har bir fakultetdan 10 ta qiz bola va 10 ta o'nta o'g'il bola ishtirok etishdi, jami 20 ta qiz bola va 20 ta o'g'il bola. Buni ham quyidagi diogramma orqali ko'rishingiz mumkin.



Respondentlarim 1-kurs yoki 4-kurs talabalari bo'lishiga qaramay, har qaysi guruhda turli yoshdagi talabalarni uchratish mumkin, buni quyidagi diogramma orqali ham ko'rishingiz mumkin.



Sinaluvchilarimdagи iroda va motivatsiya darajasini aniqlash uchun quyidagi metodikalalardan foydalandim:

Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash metodikasi; Irodani aniqlash, qat'iyatlilikni baholash metodikasi; Ayzenkning temperamentni aniqlash metodikasi.

Dastlab metodikalarning parametrik va noperametrik ekanligini aniqlab olgach, parametrik shkalalar bo'yicha "student-t" mezonidan foydalandim. Buni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin. Parametrik hisoblangan motivatsiya darjasasi ($t=1,441$; $p<0,05$), hissiy barqarorlik ($t=-1,318$; $p<0,05$), ekstrovert-introvert ($t=-0,752$; $p<0,05$) shkalalar bo'yicha 95 foizlik ishonch daraja bilan ham tafovut aniqlanmadi. Biroq, o'rtacha qiymatga qaraydigan bo'lsak, birozgina tafovutni ko'rishimiz mumkin. Birinchi shkala hisoblangan motivatsiya darjasasi bo'yicha 1-guruh 2-guruhdan ustun bo'lib, bunga ularning 4-kurs ekanliklari, kasbining ham asosan, mablag' bilan bog'liqligini sabab qilib olsak bo'ladi. 2-guruhnинг motivatsiyasini past deb bo'lmaydi, biroq, 1-guruhdan quyiyoq. Hissiy barqarorlik shkalasi bo'yicha esa, 2-guruh 1-guruhdan ustun bo'lib, ularning badiiy kitobni muntazam ravishda o'qib borishlarini bunga misol qilsak bo'ladi. 2-guruhnинг quyi ko'rsatgichiga esa, ulardagi badiiy kitobni ko'p o'qimasliklari, kasbiga bo'lgan kuchli ishtiyoqni misol qilsak bo'ladi. Ekstrovert-introvert shkalasi bo'yicha ham 2-guruh nisbatan yuqori natijaga ega bo'lib, bunga ulardan ko'pincha shoir va yozuvchilar chiqishini misol qilish mumkin. Xuddi shuningdek, 1-guruhnинг quyi natijasini esa, ularning kasbiy yo'nalishi faqat aniq fanlar bilan bog'liq ekanliklari bilan tushuntirish mumkin.

Shkalalar nomi	Sinaluvchilararning guruhি	N	O'rtacha qiymat	t	p
Motivatsiya darajasi	Iqtisod	20	22,30	1,441	0,158
	O'zbek tili	20	20,70		
	Iqtisod	20	10,35		

Hissiy barqarorlik darajasi	O'zbek tili	20	11,80	-1,318	0,195
Ekstrovert-introvert darajasi	Iqtisod	20	11,95	-0,752	0,457
	O'zbek tili	2	1		
		0	2,65		

Noparametrik hisoblangan shkalalar bo'yicha esa, tafovutni aniqlash maqsadida Manni-Uitni mezonidan foydalandim. Buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin. Ko'rib turganingizdek, 95 foizlik ishonch daraja bilan ham tafovut aniqlanmadidi, Iroda darajasi ($U=-0,686$; $p<0,05$), javoblarning ishonchlilik darajasi ($U=0,493$; $p<0,05$). Biroq, o'rtacha ranglashga qaraydigan bo'lsak, birozgina tafovutni ko'rish mumkin. Bunda, iroda darajasi bo'yicha 2-guruh 1-guruhdan ustun bo'lib, buni badiiy kitobni yillar mobaynida o'qishi, boshqa fanlarni ham kitob o'qish bilan birdek olib borishini misol qilsak bo'ladi. 1-guruuhning ham natijasi past hisoblanmaydi, biroq, 2-guruuhga nisbatangina pastroq natijani ko'rsatdi, xolos. Javoblarning ishonchlilik darajasiga ko'ra, 2-guruh ustun bo'lib, shuni unutmaslik kerakki, natija qanchalik yuqori bo'lsa, ishonchlilik darajasi shunchalik past natijani ko'rsatadi. Shuning uchun, bu shkala bo'yicha 1-guruh past, 2-guruh esa, normal natija deyish mumkin.

Shkalalar nomi	Sinaluvchilarining guruhi	N	O'rtacha rang	U	p
Iroda darajasi	Iqtisod	20	19,25	-0,686	-0,394
	O'zbek tili	20	21,75		
	jami	40			
Javoblarning ishonchlilik darajasi	Iqtisod	20	21,20	0,493	0,694
	O'zbek tili	2	19,80		
	jami	4			
		0			

Fakultetlar aro tafovut aniqlanmagach, sinaluvchilarining jinsi bo'yicha ham mezonga qo'yib ko'rdim va buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin. Eslatib o'tamanki, guruhlar soni 2 ta bo'lganligi uchun parametrik shkalalar uchun "student-t" mezondan, noparametrik shkalalar uchun esa, "Manni-Uitni" mezonidan foydalanmoqdaman. Jins tafovuti bo'yicha 1-guruh ayollar, 2-guruh esa, erkaklardan iborat. Parametrik bo'lgan shkalalar uchun chiqqan natijalarni quyidagi jadval orqali ko'rishingiz mumkin. Jadvalga binoan, motivatsiya darajasi bo'yicha 99,9 foizlik ishonch darajasida tafovut aniqlandi ($t=-3,676$; $p>0.001$), Bunda, 1-guruh 2-guruhdan motivatsion jihatdan ustun bo'lib, buni quyidagicha tushuntirish mumkin. Erkaklarda motivatsiyaning yuqoriligini ularning oila boqishga bo'lgan ma'suiyati, bir ishni oxirigacha olib borish imkonining mavjudligi, jismonan kuchli ekanliklari bilan tushuntirish mumkin. Ayollarning motivatsiyasi past ekanligini esa, ularning o'qishni bitirar-bitirmas turmushga uzatilishlari, oqibatda esa, boshlagan ishlarini oxiriga yetkaza olmasliklari, ota-onasi yoki yaqinlari tomonidan o'g'il bolalardek qo'llab-

quvvatlanmasliklari bilan tavsiflash mumkin. Qolgan shkalalar bo'yicha 95 foizlik ishonchlik daraja bilan ham tafovut aniqlanmadi, hissiy barqarorlik ($t=-0,852$; $p<0,05$), ekstrovert-introvert ($t=1,422$; $p<0,05$). Biroq, o'rtacha qiymatga qaragan holda farqni ko'rish mumkin. Hissiy barqarorlik shkalasi bo'yicha ham erkaklar ustun bo'lib, buni o'g'il bolalarning bir so'zliklari, hissiyotga u darajada berilmasliklari bilan ta'riflash mumkin. Ayollardagi natijaning pastligini esa, ularning ko'ngli bo'shligi, boshqalarning qaroriga bo'ysunishga majbur bo'lishlari, sal narsadan ham ta'sirlanishi bilan tushuntirish mumkin. Ekstrovert-introvert shkalasi bo'yicha esa 1-guruh, ya'ni ayollarda ustunlikni ko'rish mumkin. Ulardagi ustunlikni hissiy barqarorlik shkalasiga keltirgan sabablar bilan bog'lash mumkin. Xuddi shuningdek, erkaklardagi natijaning pastligini ham hissiy barqarorlik shkalasidagi sabablar bilan bog'lash mumkin.

Shkalalar nomi	Sinaluvchilarining jinsi	N	O'rtacha qiymat	t	p
Motivatsiya darajasi	ayol	20	19,70	-3,676	0,001
	erkak	20	23,30		
Hissiy barqarorlik darajasi	ayol	20	10,60	-0,853	0,399
	erkak	20	11,55		
Ekstrovert-introvert darajasi	ayol	20	12,95	1,422	0,163
	erkak	2	1		
		0	1,65		

Jins bilan tafovutni aniqlashni davom ettirgan holda, endi noperametrik shkalalar uchun Manni-Uitni mezonidan foydalandim. Buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin. Jadvalga binoan, iroda darajasi bo'yicha 99 foizlik ishonch daraja bilan tafovut aniqlandi ($U=-3,059$; $p>0,01$). Erkaklarning ayollarga nisbatan iroda darajasi yuqori bo'lib, buni parametrik mezondagi motivatsiya shkalasida keltirilgan sabablar bilan tushuntirish mumkin, ayollardagi quyi darajani ham xuddi shunday tushuntirish maqsadga muvofiq. Keyingi shkala bo'yicha tafovut aniqlanmadi, javoblarning ishonchlilik darajasi ($U=-0,619$; $p<0,05$). Biroq, o'rtacha ranglash bo'yicha tafovut kuzatildi. Ikkinchchi shkala bo'lgan javoblarning ishonchlilik darajasi bo'yicha ayollarda yuqori bo'lib, erkaklarda esa, past natijani ko'rsatdi. Shuningdek, yuqorida fakultetlar tafovutini aniqlash bo'yicha olib bogan tadqiqotimizda ham aytib o'tganimizdek, ishonchlilik darajasi natijasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ishonchlilik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Demak, jadvalimizga binoan, ayollarda ishonchlilik darajasi past deyishimiz mumkin. Buni ayollarning hissiyotga beriluvchanligi, uyatchanligi, o'g'il bolalarga nisbatan siriari ko'p bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Erkaklarda esa, buning aksini ko'rish mumkin.

Shkalalar nomi	Sinaluvchilarining jinsi	N	O'rtacha rang	U	p
Iroda darajasi	ayol	20	14,93	-3,059	0,002
	erkak	20	26,08		

	jamি	40			
Javoblarning ishonchlik darajasi	ayol	20	21,60	-0,619	0,536
	erkak	2 0	19, 40		
	jamি	4 0			

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, barchada psixik jrayonlar, psixik holatlar, psixiki xususiyatlar individual bo‘ladi. Barchasi inson hayoti va faoliyati uchun eng zarur. Inson faoliyatini belgilab beruvchi omillardan iroda va motivatsiya chambarchas bog‘langan bo‘lib, eng asosiy omil hisoblanadi. Motivatsiya motivlar yig‘indisi bo‘lib, insonni biror harakatga undab turuvchi kuch hisoblanadi. Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan insonlar biror-bir ishni o‘zgacha ishtiyoq va qiziqish bilan amalga oshiradilar. Harakatga undalgan insonning vazifani oxirigacha bajarishida esa, albatta, iroda kuchi namoyon bo‘ladi.

REFERENCES

1. E.E.G‘oziyev – Umumiy psixologiya, Toshkent 2002
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya, Toshkent 2015
3. X.G.Sharafiddinova – Umumiy psixologiya, Toshkent 2022
4. The role of parental psychology in the formation of a particular religious beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M.Saydaliyeva- Eurasian scientific herald – 2023
5. Abdurauf Fitrat – Oila, Toshkent 2000
6. Fazliddin Ikroruddin – Nikoh va oila risolasi, Toshkent 2004